

DOI: 10.5281/zenodo.16265498

Link: <https://zenodo.org/records/16265498>

XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI YORDAMIDA INNOVATION FAOLIYATINI MOLIYAVIY RAG'BATLANTIRISH

Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

I.f.f.d (PhD), dotsent, iqtisodiyot fakulteti,

Namangan davlat texnika universiteti

email: nbahriddinov@lincolnucasf.edu

Annotatsiya - maqolada xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning innovatsion faoliyatini moliyaviy rag'batlantirishda horijiy davlatlar tajribasi yoritib berilgan. Mazkur masala bo'yicha turli horij olimlar qarashlari ko'rsatilgan va ularning amaliyotda qo'llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirishning chet el tajribasi atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar - innovatsion faoliyat, rag'batlantirish, korxonalar, moliyaviy rag'bat, xorijiy tajriba, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, globallashuv, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy va ijtimoiy infratuzilma, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar.

KIRISH

Hozirgi zamonda innovatsiyaga iqtisodiyot taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri sifatida qaralmoqda. Innovasion faoliyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri uni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish hisoblanadi. Xorijiy davlatlarning bu sohada to'plagan tajribasi mamlakatimiz uchun katta amaliy ahamiyatga ega. Ularning ilg'or usullarini tadbiq etish mahalliy korxonalarning innovasion salohiyatini kuchaytirishga, iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Dunyo iqtisodiyotining yetakchi davlatlari tajribasi iqtisodiy o'sish bu to'g'ri tanlangan investisiya siyosati ekanligini ko'rsatadi.

Samarali investisiya siyosatida asosiy e'tibor mavjud resurslar, investisiyalar sharoitida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlab olish, investisiyalarni aniqlangan istiqbolli yo'nalishlarga safarbar qilishdir.

Bu yerda so'z moliyaviy resurslar hajmida emas, balki, kelajakda ushbu yo'nalishlar bo'yicha bajariladigan ishlarda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish xususida bormoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridan biri barcha sohalarni modernizatsiyalash va innovasion rivojlanishga o'tishi xisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining zamonoviy tendensiyalari sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsiyalarni joriy etishni talab qilmoqda.

Innovasion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish jarayonida moliyaviy mexanizmlar muhim o'rinn tutadi. Xususan, xorijiy davlatlar tajribasi innovatsiyalarni

rag‘batlantirishda samarali moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishda qimmatli tajriba manbai hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot davomida yuqorida ta’kidlangan innovation faoliyatga oid dastlab keng ma’noda «Innovatsiya» atamasi birinchi marta avstriyalik iqtisodchi Y.Shumpeter tomonidan 1912 yilda «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi»²² asarida taklif etilgan. Innovation nazariyaning eng asosiy qoidalari ham ushbu asarda to‘la asoslab berilgan.

Amerikalik boshqaruv bo‘yicha mutaxassis P.Druker innovatsiyaga nisbatan yanada kengroq yondashuvni chiqdi, ya’ni «Yangilik kiritish – bu murakkab tizim bo‘lib, uning yordamida g‘oyalar va ixtiolar birinchi marta tijorat voqeligiga aylanadi. Bu – mahsulot yoki xizmat turlarini bozorga chiqarish, iqtisodiyotga muvaffaqiyatli joriy etish, demakdir»²³ ishlab chiqdi.

METODOLOGIYA

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy yondashuvlar o‘rganilib, mushohada qilingan. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun yo‘nalish tanlab olingan. Birlamchi hamda ikkilamchi ma’lumot manbalarini chuqr o‘rganshi va asoslash uchun tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovation faoliyatni rag‘batlantirish, avvalo, davlatning iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin tutadi. Moliyaviy rag‘batlantirish davlat yoki xususiy manbalar orqali innovatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur mablag‘larni taqdim etish, soliq imtiyozlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat grantlari, subsidiyalar, qarz kafolatlari, vechur mablag‘larini, ilmiy-tadqiqot ishlariga ajratiladigan davlat mablag‘lari kabi vositalarni o‘z ichiga oladi. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, moliyaviy rag‘batlantirishning to‘g‘ri tashkil etilishi innovation loyihalarning tijorat jihatdan samaradorligini oshirada va xususiy kapitalning ushbu sohada ishtirokini kuchaytiradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlari juda rivojlangan. Masalan, Germaniya – “High-Tech Strateqy” dasturi orqali 2020-2024 yillarda yiliga taxminan 15 mlrd yevro ajratilmoqda. Davlat soliq imtiyozlari bilan birga grantlar va subsidiyalar berish tizmini joriy qilgan. Fransiya – “Credit d’Impot Recherche”(CIR) soliq krediti innovation tadqiqotlarga sarflangan xarajatlarning 30 foizini qaytarib berishni nazarda tutadi. Finlyandiya –“Business Finland”agentligi orqali startaplarga grantlar, arzon kreditlar hamda eksportni qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini taklif qiladi²⁴.

²² Shumpeter Y. «Teoriya ekonomicheskogo razvitiya». – M., Progress, 1982. –455s.

²³ П.Друкер Новый бизнес.- М.: Экономика, 1993, с

²⁴Horizon Europe Programme Guide, European Comission, 2021

AQSH da innovation faoliyatni moliyaviy rag‘batlantirishda davlat bilan xususiy sektor hamkorligi asosiy ahamiyatga ega. Misol uchun Small Business Innovation Research (SBIR) dasturi orqali korxonalarga innovation tadqiqotlarni amalga oshirish uchun yillik milliardlab dollar grantlar ajratiladi. Venchur kapital bozori AQSH da dunyodagi eng yirik bozorlardan biri bo‘lib, xususiy investorlar startaplar uchun muhim moliya manbai hisoblanadi. AQSH da innovatsiyani moliyalashtirishda Small Business Innovation Research (SBIR), Small Business Technology Transfer (STTR), National Science Foundation (NSF) grantlari kabi yirik dasturlar bor. AQSh da korxonalar innovatsiyaga sariflagan xarajatlarini federal soliqdan chiqarib tashlash imkoniga ega (R&D Tax Credit)²⁵.

1-Jadval. AQSHda innovatsiyani moliyalashtirishning asosiy vositalari²⁶

Vosita nomi	Mazmuni	Mablag‘ miqdori (o‘rtacha)
SBIR	Kichik biznes uchun grantlar	\$150,000 - \$1000,000
STTR	Universitetlar bilan hamkorlikda tadqiqot	\$150,000 - \$1000,000
R&D Tax Credit	Soliq imtiyozlari	Innovatsiya xarajatlarining 20-30%

Janubiy Koreya innovation iqtisodiyotga o‘tishda davlatning faol ishtirokini namoyon qildi. **Innovative Growth Fund** orqali startaplar uchun 10 trillion von (tahminan 8,5 mlrd dollar) ajtilgan. Soliq imtiyozlari esa 25 foizgacha innovatsiya xarajatlarini qamrab oladi. Koreya davlati grantlari va xususiy venchur kapitalini uyg‘unlashtirgan “**Matching Fund**” tizimini yo‘lga qo‘ygan. Bu startaplar davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham mablag‘larini jalb qiladi²⁷.

Xitoy innovatsiyani rag‘batlantirishga katta davlat mablag‘larini yo‘naltirmoqda. Davlat moliyalishtirish manbalari National Innovation Fund, Hiqh-Tech Zones (taxminan 150 ta). Shuningdek, Xitoyda korxonalar uchun soliq imtiyozlari ko‘zda tutilgan, innovatsiyaga yo‘naltirilgan xarajatlardan 75 foizi soliqdan chiqarib tashlanadi²⁸.

Yevropa yoki AQSH tajribasi asosida O‘zbekistonda ham tadqiqot va ishlanmalarga sarflangan xarajatlarning ma’lum qismini soliqdan chiqarib tashlash tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq. Masalan, soliq imtiyozi inovasion xarajatlarining 20-30 foizigacha, R&D xarajatlarini qoplash uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalar. Venchur fondlarining rivojlantirishda Janubiy Koreyaning “Matching

²⁵SBIR/STTR Program Overview, U.S. Small Business Administration, 2023.

²⁶Муаллиф томонидан шакиллантирилган.

²⁷Korean Ministry of SMEs and Startups Annual Report, 2022.

²⁸China National Innovation Fund, Annual Report, 2021.

Fund" modeli qiziqarli. O'zbekistonda davlat va xususiy sektor mablag'larini uyg'inlashtirgan tizim venchur sarmoyani kengaytirishga yordam beradi. AQSH ning SBIR/STTR dasturlariga o'xshash maxsus grant dasturlari yaratish O'zbekistonda kichik innovation biznesni rag'batlantiradi.

Xitoy tajribaasiga qarab, texnoparklar va maxsus innovation zonalarga soliq imtiyozlari berish maqsadga muvofiq.

2-Jadval. Xorijiy tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar²⁹

Davlat	Tajriba	O'zbekistonda qo'llash imkoniyati
Fransiya	CIR – 30% soliq imtiyozi	Soliq imtiyozlarini joriy etish
AQSH	SBIR/STTR	Grant dasturlarini tashkil etish
Janubiy Korea	Matching Fund	Davlat-xususiy sherikchilik tizimini kuchaytirish
Xitoy	High-Tech Zones	Innovatsiya zonalari tashkil etish

O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsiyani qo'llab-quvvatlash borasidaa bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, Innovation rivojlanish vazirligi tashkil etildi, Ilmiy-tadqiqod institutlariga davlat grantlari ajratila boshlandi, "Innovative Development Strategy" qabul qilindi, Soliq imtiyozlari belgilandi (ammo hali YeI yoki AQSH darajasiga yetmagan).

Bundan tashqari, texnoparklar va innovatsiya markazlari tashkil etilayotgani ijobiy qadamdir. Lekin xorij tajribasi bilan solishtirganda venchur kapitali bozori hali rivojlanmagan, grant dasturlari cheklangan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasiga ko'ra, ularning har birida innovatsiyalarni moliyaviy rag'batlantirishda davlatning roli siyosati tuzilishiga, iqtisodiy rivojlanish darajasiga va eng muhimi innovation siyosatning motivatsiyasiga bog'liq bo'lib, u o'ziga xos tarzda nomoyoni bo'ladi. Bunga misol qilib dunyo miqiyosidagi rivojlangan va yuqori rivojlanayotgan mamlakatlarni keltirish mumkin. Masalan, AQSH uchun asosiy xarakat dunyo miqiyosidagi global xarbiy-siyosat va iqtisodiy gegamonlikni saqlab qolish. Yevropa mamlakatlari uchun ijtimoiy barqarorlik va turmush sifatini saqlash. Xitoy davlati uchun barqaror o'sish va iqtisodiy yetakchilikka erishish. Xindiston, Malaziya uchun esa, qashshoqlik va ichki muammolarni yengish, barqarorlikka erishish. Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) va Singapur uchun makro darajada mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish turadi³⁰.

Bunday rivojlanish har bir mamlakatning ichki siyosiy tizimidan kelib chiqqan holda belgilab beriladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda davlat byudjeti muhim man'ba bo'lsa-da,

²⁹Муаллиф томонидан шакиллантирилган.

³⁰Селезнёв П.С. Инновационная политика "незападных" стран в начале XXI столетия: поиск приоритетов модернизации.-М.: «Финансовой университет». 2013. С-11.

innovation ishlanmalarni moliyalashtirish va amalga oshirishda ikkinchi darajali hisoblanadi. Ularda ilmiy tadqiqotlarni umumiyl moliyaviy rag‘batlantirishdagi davlat byudjeti bilan birlashtirishda xususiy sektorning ulushi ham yuqori ko‘rsatkichga ega. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda xorijiy davlatlar mablag‘lari hisobidan ITTKI larga sariflangan xarajatlar yildan yilga o‘sib borgan (3-jadval).

3-jadval. Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga xarajatlar³¹

(mln. so‘m)

Moliyalashtirish manbalari/Yillar	2020	2021	2022	2023
davlat byudjeti mablag‘lari	524 252,6	591 421,7	752 605,9	732 470,6
byudjetdan tashqari fond mablag‘lar	24 660,0	23 247,4	171 092,3	83 507,0
shaxsiy mablag‘lar	199 679,4	267 715,1	362 543,9	423 763,1
buyurtmachi mablag‘lari	75 880,5	61 940,4	81 025,0	90 162,9
xorijiy manbalar mablag‘lari	236,0	2 159,6	2 641,1	6 238,4
Jami	824 708,5	946 484,2	1 369 908,2	1 336 141,9

3-jadvaldan ko‘rinib turibtiki, ITTK ishlariga ajratilgan xorijiy mablag‘lar 2020 yil 236,0 mln. so‘mdan 2023 yilgacha o‘sib borib 6 238,4 mln. so‘mga yetgan..

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga ko‘ra, masalan, Germaniyada ilmiy-tadqiqod va tajriba-konstrukturlik ishlarni ishlab chiqarishga joriy etishni moliyalashtirishda davlatning manfaatdorlik darajasi past baholanadi. Xorijiy davlatlar tajribasiga ko‘ra, innovation jarayonlarni moliyalashtirish mexanizmlarini turli shakillari faol tarizda qo‘llanib kelinmoqda.

Sanoati rivojlangan Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur kabi bir qator mamlakatlar innovatsiyalarni moliyaviy rag‘batlantirishning eng zamonoviy mexanizmlarini qo‘llashga o‘tib, rivojlanayotgan davlatlardan ilgarilab ketdi.

Mamlakatimizda mayjud hom ashyo resurslarni qayta ishlash darajasini oshirish o‘rniga , hom ashyo eksportini jadal rivojlanishiga va ularni qazib olishda xorijiy korxonalarini investor sifatida jalb etilgani ma’lum. Endilikda respublikada hom ashyo eksportidan bosqichma-bosqich voz kechish, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarib innovation muhitni takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

³¹ www.stat.uz – Statistika qo‘mitasining rasmiy saytining 2020-2024 yillardagi hisoboti.

Milliy resurslar qazib olishda xorij investisiyasi ijobiy natija berishi mumkin, ammo uni eksport qilinishi natijasida valyuta mamlakatda qo'shimcha ish o'rirlari yaratishdan boshqa ijobiy natija bermaydi. Agarda xorijiy investisiyalar yordamida mahalliy hom ashyo va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, innovasion mahsulotlar ishlab chiqarish sohalar kesimida yo'lga qo'yilsa, samaraga erishish imkoniyati ortadi³².

Sanoati rivojlangan xorijiy davlatlarda yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishining 80-95 foizi texnika va texnologiyalarda mujassamlashtirilgan yangi bilimlar xissasiga to'g'ri kelmokdi. Milliy innovatsiya tizimini yaratilishi tufayli rivojlanishning innovasion yo'liga qadam qo'yishga muvoffiq bo'lindi. AQSH da o'tkazilgan tadqiqodlarga ko'ra, aynan milliy innovatsiya tizmlari XXI- asrning bosh yutug'i deya e'tirof etilmoqda.

Mustaqil davlatlar xamdo'stligi (MDX) mamlakatlari Ukraina, Belaraus, Qozog'iston va boshqalarda innovasion salohiyatdan foydalanishning mavjud mexanizmlari moliyalashtirish masalalarini ham o'z ichiga olgan innovasion jarayonlarni tartibga solish tizmlari, ya'ni inson kapitali, ishbilarmonlik faoliyati uchun yengilliklar, intelektual mulk huquqlarini himoya qilish va saqlash tizimiga ta'sir eta oladigan omillar, fan sohasining rivojlanish darajasi va boshqa shu kabilarga asoslanadi. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardanoq innovasion faoliyat va innovasion moliyalashtirishni shakillantirish va rivojlantirishga muhim e'tibor qaratilgan.

Xorijiy investorlar yordamida mamlakatimizda qurilgan ob'yektlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surhondaryo, Xorazim, Novoiy viloyatlari va Farg'ona vodiysi viloyatlarining qishloq xududlarida bo'lsa, yagona soliq to'lovlar, daromad (foyda solig'i), mulk solig'i va infratuzilmani rivojlantirish solig'laridan to'liq ozod qilinadi. Bundan kelib chiqadiki imtiyoz va soliqlardan ozod etish orqali xorijdan pul oqimlarini kirib kelishini ham innovasion faoliyat va innovasion moliyalashtirish deb tushunish mumkin³³.

Mamlakatimiz sanoat korxonalari innovasion faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirishni takomillashtirishda maqsadli ayrim imtiyozlar berish, jadallashtirilgan amartizatsiya qo'llash va shu kabi ishlarda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishni lozim hisoblaymiz. Bunday mamlakatlarning hukumatlari xususiy biznesni ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini moliyalashda faolroq ishtirok etishlariga erishishga intiladilar.

Dunyo iqtisodiyotining yetakchi davlatlari tajribasi iqtisodiy o'sish –bu to'g'ri tanlangan investisiya siyosati ekanligini ko'rsatadi.

Samarali investisiya siyosatida asosiy e'tibor mavjud resurslar, investisiyalar sharoitida mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini aniqlab olish, investisiyalarni aniqlangan istiqbolli yo'nalishlarga safarbar qilishdir.

³² Хуразов З.К. Инновацион молиялаштиришнинг назарий жиҳатлари. // Иқтисод ва молия. 2015.

³³ Вахабов А.В., Маликов Т.С. / Дарслик. –Т., 2010.

Bu yerda so‘z moliyaviy resurslar hajmida emas, balki, kelajakda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha bajariladigan ishlarda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish xususida bormoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishing asosiy yo‘nalishlaridan biri barcha sohalarni modernizatsiyalash va innovasion rivojlanishga o‘tishi xisoblanadi.

Horijiy davlatlarda innovasion salohiyatni baholashning tizimli modelini aniqlashda elementli, strukturali, funksional va integral jihatlari tahlil qilinadi.


Elementli jihatni innovasion salohiyatning umumiyligini va quvvatlilik tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Strukturali jihatni innovasion salohiyatning tizimli ya’ni miqdor va sifatning o‘zaro bog‘liqligi bilan aniqlanadi.

Funksional jihatida innovasion salohiyatning sanoat korxonalarida innovasion faoliyat bo‘yicha taqqoslash tahlilnini amalga oshirishga yordam beradi.

Integral jihatni innovasion salohiyat tizimida nomutanosibliklarni, qarama-qarshiliklarni yechish usullarini aniqlaydi, boshqa sanoat korxonalarida innovasion faoliyat bilan muvofiqlashtiro‘vchi aloqalarni barqaror rivojlantirish uchun innovasion salohiyat iyerarhiyasini belgilaydi.

AQSH iqtisodiy va innovasion salohiyatini baholash uchun “Shtatlar rivojlanish xaritasi (The Development Report Card for the States DRS)” ishlab chiqilgan bo‘lib, 67 ta ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi va uchta asosiy blokga birlashtiriladi³⁴.(1-rasm).



1-rasm. AQSH iqtisodiy va innovasion salohiyatini baholash ko‘rsatkichlari bloki³⁵.

Iste’molchilar uchun iqtisodiy iqlim bloki o‘z ichiga bandlik va ishsizlik darajasi ko‘rsatkichlarini, o‘rtacha ish haqi, ijtimoiy sug‘urtato‘lovlarini, “ishlayotgan kambag‘allar” darajasi, daromadlar tengsizligidarajasi, turmush sifati tavsifi va ish o‘rinnari ko‘rsatkichlarini qamrab olgan. Aholining turmush sifati baholanishi ko‘rsatkichlariga migratsiyadarajasi, bolalar o‘limi, yurak qon-tomir kasalliklaridan

³⁴ Development Report Card for the States/ URL: <http://cfed.org/knowledfe> _center/reseach/DRS/(date of treatment:02/20/2018).

³⁵ Муаллиф томонидан шакллантирилган.

o‘lim darajasi, saylovlarda faol qatnashishi kiradi. Shuningdek bu blok ko‘rsatkichlariga energiya iste’moli, qayta tiklanadigan energiya manbalari, yil davomida shtat aholisining o‘rtacha bosib o‘tgan masofasi, toksik mahsulotlar ishlab chiqilishi va issiqxona gazlari chiqindilari baholanishi ham kiradi. Har bir blok bo‘yicha monitoring tizimi ko‘rsatkichlar dinamikasini o‘z ichiga oladi. Masalan, ishsizlik darajasi dinamikasi, qambag‘allik darajasi dinamikasi va boshqalar.

Biznes uchun iqtisodiy iqlim bloki quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholanadi: ishlab chiqarishga kiritilgan investisiyalar darajasi, ishlab chiqarishni diversifikatsiya darajasi, yangi tashkil etilgan kompaniyalar miqdori, yangitashkil etilgan ish o‘rinlar miqdori va boshqalar. Bu ko‘rsatkichlar asosida oldingi boblarimiz paragraflarida biz ham tahlil qilganimizdek, innovation salohiyatga ta’sir ko‘rsatadi va mahalliy byudjet daromadlarini oshishiga olib keladi.

MUHOKAMA

Yevropa ittifoqi sanoat korxonalparida innovation faoliyatni moliyaviy, iqtisodiy salohiyatini baholashda sanoat korxonalarida innovation faoliyat kapital konsepsiyasi va sanoat korxonalarida innovation faoliyatning raqobatbardoshlik indeksi (EU Regional Competitiveness Index) ishlab chiqilgan³⁶.

Yevropa ittifoqi sanoat korxonalarida innovation faoliyati uchun ishlab chiqilgan sanoat korxonalarida innovation faoliyat kapital konsepsiyasi, sanoat korxonalarida innovation faoliyat resurslarinidinamik tarzda analistik ifodalab, sanoat korxonalarida innovation faoliyatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida yangi bozorlarga erishishdan mehnat resurslarini jalb qilish va biznesni rivojlantirishgacha bo‘lgan masalalar yechimini beradi. Sanoat korxonalarida innovation faoliyat kapital konsepsiyasi, hududda mavjud barcha aktivlar shu jumladan moddiy va nomoddiy aktivlarni o‘z ichiga qamrab olib, ushbu aktivlardan samarali foydalanish uchun qabul qilinadigan qarorlar va malaka tajribalarini hisobga olgan holda, sanoat korxonalarida innovation faoliyatning (shahar, viloyat) endogen rivojlanish asosini tashkil etadi. Sanoat korxonalarida innovation faoliyatning rivojlanishi va reja dasturlarini tuzish uchun bu yondoshuvning ahamiyati katta³⁷.

Sanoat korxonalarida innovation faoliyatning kapital konsepsiyasini tashkil etadigan barcha ko‘rsatkichlar 8ta asosiy bloklarga guruhlangan bo‘lib, ko‘yidagilardan tarkib topgan³⁸:

1. Jismoniy resurslar va ularni boshqarish (flora, fauna, atmosfera, suv resurslari va boshqalar);
2. Madaniyat va hududning o‘z-o‘zini aniqlash (qiziqishlar, umumiyyadriyatlari);
3. Inson resurslari (ko‘payishi va ijtimoiy tuzilishi, bandlik vaboshqalar);
4. Implisit va eksplisit nou-xau va malaka;

³⁶ EU Regional Competitiveness Index RCI 2013//URL:<https://ec.europa.eu/jrc/en/publication/eur-scientific-andtechnical-research-reports/eu-regional-competitiveness-rci-2013>(2019) 42 бет.

³⁷ OECD Territorial Outlook 2001 URL: <http://www.oecd-ilibrary.org>.

³⁸ LEADER Observatory Territorial Competitiveness: Creating a Territorial Development Strategy in the light of the Leader Experience. Brussels: LEADER Observatory, 1999.

5. Mahalliy boshqaro‘v organlari va administratsiya (siyosiy qoidalar, boshqaro‘v, moliyalashtirish);
6. Biznes;
7. Bozorlar va tashqi aloqa;
8. Imidj va hududni idrok etish.

Yevropa ittifoqining rivojlanish imkoniyatlari avvalom bor sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishiga asoslanadi. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning rivojlanishi bashoratlarida asosiy e’tibor endogen aktivlarga, so‘ng ekzogen – investisiya va transfertlarga asoslanadi. Har birhududning ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi kompleks o‘zar bog‘liq omillarga infratuzilma, geografik joylashuvi, ko‘lami, demografik ko‘rsatkichlar, sanoatlashuv ixtisolashuvi, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatlashtirish darajasi kiradi³⁹. Sanoat korxonalarida innovasion faoliyat rivojining asosiy faktoriga endogen ko‘rsatkichlar kiradi, bularga: inson kapitali (yuqori malakali mutahassislar zahirasi sifatida ham, mehnat resurslari kasb ishchilarining yetishmasligi sifatida ham), infratuzilma, innovasion faollik, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatlashuvi va ko‘lami e’tiborga olinadi. Bu omillar bir birini to‘ldiruvchi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu aktiv va resurslarni boshqaruvi sifatiga ham e’tibor qaratiladi.

Yevropa ittifoqida sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning raqobatlashuv indeksi Yevropa komissiyasi xomiyligida ishlab chiqilgan bo‘lib, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatga strategik maqsadlarini aniqlash va rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda yordam berishga qaratilgan⁴⁰.

Avstraliyada sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning salohiyati indeksi AQSH uchun ishlab chiqilgan sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning salohiyati indeksi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uchta asosiy guruh indekslarni – iqtisodiy salohiyat indeksi, ijtimoiy – demografik salohiyat indeksi va jamiyatning rivojlanish indekslarining o‘z ichiga qamrab olgan⁴¹.

Iqtisodiy salohiyat indeksi hudud aholi daromadlarining tengsizligi ko‘rsatkichlari, sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning iqtisodiy diversifikatsiya darajasi, uy-joyning arzonligi darajasi hamda iqtisodiydinamikaning subindeksi dan iborat, u o‘z navbatida ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik xarajatlaridan, yil davomida yangidan tashkil etilgan va faoliyatini to‘xtatgan korxonalar miqdoridan, kengpolosli internetga ulangan uy xo‘jaliklaridan, yirik korxona va kichik korxonalar sonidan iborat. Ijtimoiy – demografik indeksi sanoat korxonalarida innovasion faoliyatning ta’lim olish darajasini baholaydi, mehnat bozorida xotin- qizlarning qatnashish darajasini, qashshoqlik darajasi va umr ko‘rish darajasi ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi. Sanoat korxonalarining innovasion faoliyatida jamiyatning rivojlanish indeksi integral ko‘rsatkichlarni o‘zichiga qamram

³⁹ OECD How regions grow: trends and analysis, OECD publishing, 2019, p34.

⁴⁰ EU Regional Competitiveness Index RCI 2013//URL:[https://ec.europa.eu/jrc/en/publication/eur-scientific-and-technical-reseach-reports/eu-regional-competitiveness-rci-2013\(2019\)426ет.](https://ec.europa.eu/jrc/en/publication/eur-scientific-and-technical-reseach-reports/eu-regional-competitiveness-rci-2013(2019)426ет.)

⁴¹ KPMG Australian Regional Capacity index, KPMG, 2015/ URL: <http://www.kpmg.com/AU/en/IssuesAndInsights/Publications/Documents/australian-regional-capacity-index.pdf>.

olgan bo‘lib, ularga ko‘yidagilar kiradi: immigrantlar ulushi, sport musobaqalarida qatnashayotgan shaxslar, aholining saylovlardan faol qatnashishi va qamoqxonalarda mahbuslarning ulushi.

XULOSA

Qulay innovation muhitni ta’minlovchi imtiyozlarning oshirib borilishi umumiy tendensiyadir. AQSHda fan-texnika taraqqiyotining faollashtirishga qaratilgan yuzdan ortiq imtiyozlar mavjud. Muhimi shundaki, soliq orqali quvvatlash oldindan avanslash tarzida emas, balki erishilgan real innovatsiya uchun rag‘bat sifatida amalga oshiriladi. Aslida firmaning mamlakatdagi innovation jarayonga qo‘sheyotgan hissasi, u olayotgan soliq imtiyozlariga mos keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda innovation faoliyatni davlat tomonidan rag‘batlanirishdagi bosh qoida imtiyozlar ilmiy tashkilotlarga emas, balki korxona va investorlarga taqdim etilishidir.

Fikrimizcha xorijiy davlatlarning innovatsiyani moliyaviy rag‘batlanirish sohasidagi tajribasi mamlakatimiz uchun boy manba hisoblanadi. Fransiya, AQSH, Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlarda qo‘llanilayotgan moliyaviy vositalar soliq imtiyozlari, grantlar, vechur kapitali va innovatsiya zonalari kabi yo‘nalishlar mamlakatimizda ham keng tadbiq etilishi mumkin. Shu asosda mahalliy innovation faoliyatni yanada rivojlantirib tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI

1. N.Baxriddinov. Xo’jalik yurutuvchi korxonalarni innovatsion faoliyatni moliyaviy rag‘batlanirishda xorij tajribasining o’rni. //“IQTISODIY TARAQQIYOT VA TAHLIL” ilmiy elektron jurnali, IV-son, Aprel 2025.
2. Шумпетер Й. «Теория экономического развития». – М., Прогресс, 1982. –455c.
3. П. Друкер Новый бизнес.- М.: Экономика, 1993, с.
4. Horizon Europe Programme Guide, European Comission, 2021.
5. SBIR/STTR Program Overview, U.S. Small Business Administration, 2023.
6. Korean Ministry of SMEs and Startups Annual Report, 2022.
7. China National Innovation Fund, Annual Report, 2021.
8. Селезнёв П.С. Инновационная политика “незападных” стран в начале XXI столетия: поиск приоритетов модернизации.-М.: «Финансовой университет». 2013. С-11.
9. Хуразов З.К. Инновацион молиялаштиришнинг назарий жиҳатлари. // Иқтисод ва молия. 2015.
10. Ваҳабов А.В., Маликов Т.С. / Дарслик. –Т., 2010.
11. Development Report Card for the States/ URL: [http://cfed.org/knowledfe_center/reseach/DRS/\(date of treatment:02/20/2018\)](http://cfed.org/knowledfe_center/reseach/DRS/(date of treatment:02/20/2018))
12. EU Regional Competitiveness Index RCI 2013// URL: [https://ec.europa.eu/jrc/en/publication/eur-scientific-andtechnical-research-reports/eu-regional-competitiveness-rci-2013\(2019\)](https://ec.europa.eu/jrc/en/publication/eur-scientific-andtechnical-research-reports/eu-regional-competitiveness-rci-2013(2019) 42 бет.

13. LEADER Observatory Territorial Competitiveness: Greeting a Territorial Development Strategy in the light of the Leader Experience. Brussels: LEADER Observatory, 1999
14. OECD How regions grow: trends and analysis, OECD publishing, 2019, p34
15. KPMG Australian Regional Capacity index, KPMG, 2015/ URL: <http://www.kpmg.com/AU/en/Issues> And Insights/ArticlesPublications/Documents/australian-regional-capacity-index.pdf